



YIGITLARNI MUSTAQIL OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA DOLZARBLIGI

*Norbekova Barno Shavkatovna,
O'zMU Jizzax filiali Yoshlar psixologiyasi kafedrasida dotsenti.*

*Burxonova Umida Inomovna,
O'zMU Jizzax filiali 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yigitlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik, jismoniy, ijtimoiy, axloqiy-psixologik tayyorlik xususiyatlari va dolzarbligi haqida ma'lumotlar keltrilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Nikoh yoshi, psixologik, jismoniy, ijtimoiy, axloqiy, kommunikatsiya, empatiya, o'z-o'zini anglash.

PSYCHOLOGICAL FEATURES AND RELEVANCE OF PREPARING YOUNG MEN FOR INDEPENDENT FAMILY LIFE

Abstract: This article discusses the psychological, physical, social, and moral-psychological aspects of preparing young men for independent family life. The study highlights the relevance and importance of developing these qualities for the successful adaptation of young men to family life.

Keywords: Marriage age, psychological, physical, social, moral, communication, empathy, self-awareness.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ И АКТУАЛЬНОСТЬ ПОДГОТОВКИ МОЛОДЕЖИ К НЕЗАВИСИМОЙ СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация: В статье рассматриваются психологические, физические, социальные и морально-психологические аспекты подготовки молодых людей к независимой семейной жизни. Освещены актуальность и важность развития этих качеств для успешной адаптации молодых людей к семейной жизни.

Ключевые слова: возраст для заключения брака, психологический, физический, социальный, моральный, коммуникация, эмпатия, самосознание.

Kirish. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o'n, yuz barobar ko'p foyda keltiradi. "Qanchalik qiyin bo'lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo'yicha o'zimizga xos va ta'sirchan, bugungi

kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg‘unchi va zararli g‘oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma‘naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etishda barchamiz, avvalo, siz, aziz yoshlar faol bo‘lishingiz kerak. Xalqimizning ma‘naviy qudrati va boqiy an‘analarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar albatta qodirsiz”[1], – dedi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev forumda yoshlar bilan ochiq muloqotda. Shuni ta‘kidlash joizki, oila muqaddasligi tushunchasi ko‘plab muammolari bilan hamisha tadqiqotchilar aqlu zakovatini to‘lqinlantirib kelgan. Yurtimizda yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, bilimli, jismonan va ma‘naviy sog‘lom, barkamol shaxslarni shakllantirish bugungi kun talabidir.

Nikohdan o‘tayotgan yigit va qizlar oila qurishga tayyor bo‘lishlari kerak. Buning uchun, birinchi navbatda, ota-ona yoki ularning o‘rnini bosuvchilar farzandlarini sog‘lom, odobli, mard, irodali, g‘ururli, erkaklik mas‘uliyatini sezadigan mehnatsevar qilib tarbiyalashlari lozim. O‘g‘il bolalar qizlar haqida keng va chuqur tasavvurga ega bo‘lishlari kerak. Yigitlarning uy-ro‘zg‘or ishlarini, bozor-o‘char qilishni bilishlari, oilaning qadriga yetadigan vafodor, ayolmand, bolajon bo‘lishlari maqsadga muvofiq. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlab, ularni sog‘lom, odobli, kattalarni hurmat qiladigan, iffatli, nomusli, iboli-hayoli, mehnatsevar, uy-ro‘zg‘or ishlarini olib boradigan, mehmondo‘st uy bekasi darajasiga yetkazish baxtli turmushning kafolatidir.

Nikohga psixologik tayyorlik qanday tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olishi haqida turli xil qarashlar mavjud. T.V. Andreeva, I.V. Grebennikov va V.A. Sisenko yoshlarning nikohga tayyorligining uchta asosiy bosqichini ajratadilar[2]:

Nikoh yoshining yetib borishi insonning jismoniy rivojlanishi tugashini anglatadi, deb hisoblash qabul qilingan. Haqiqatan ham, uning bo‘yi, tana vazni, ko‘krak qafasi aylanasi, muskullari katta odam o‘lchamlariga yaqinlashadi. O‘smirlik davrida balog‘atga yetish davri tugaydi. Fiziologlar buni inson hayotidagi eng mas‘uliyatli davrlardan biri deb hisoblaydilar. Bu yigit-qizlarning o‘z sog‘lig‘iga zarar yetkazmagan holda farzand ko‘rish qobiliyatiga ega bo‘lishini, qizlar uchun esa sog‘lom bolani ko‘tara olish va dunyoga keltirish imkoniyatini anglatadi. Shubhasiz, jinsiy yetuklik er-xotinlikning eng muhim asoslaridan biridir. Biroq jinsiy yetuklik hali nikohga ijtimoiy va ruhiy jihatdan tayyorlikni anglatmaydi. Bu nikohdagi uyg‘un jinsiy hayotga tayyorlikni ham bildirmaydi. Oilaviy hayotga axloqiy va iqtisodiy tayyorgarlik ham zarur bo‘lib, bolalarni tarbiyalash va o‘z-o‘zini tarbiyalash asoslarini o‘zlashtirish ham muhimdir. Shu bois o‘n sakkiz yoshlilardan qaysi biri nikohga ijtimoiy va ma‘naviy jihatdan tayyor ekanligini, qaysi biri esa hali katta hayotga go‘dak nigohida qarayotganini aniqlash oson emas.

Nikoh yoshi - bu qonun yoki urf-odatlar nikohga kirish uchun ruxsat beradigan minimal yoshdir. Dunyoning aksariyat mamlakatlarida nikoh yoshi qonuniy ravishda nikohlanuvchilarning jinsiy yetuklik yoshi, psixologik va ijtimoiy yetukligi, shuningdek mamlakatning an‘analari, urf-odatlari va boshqa shart-sharoitlarini hisobga olgan holda belgilanadi.

Zamonaviy dunyoda nikohga kirishning o‘rtacha yoshini aniqlashning belgilangan chegaralari mavjud emas. Har bir er-xotin nikoh tuzish to‘g‘risida o‘z qarorini qabul qilishi kerak, deb hisoblanadi.

Masalan, 16-20 yoshda jiddiy qaror va xatti-harakatlar qilish oson. Qizlar va yigitlar hali o‘z harakatlarining oqibatlarini o‘ylab ko‘rmaydilar. Bu shunday yoshki, yigitlar oshiq-ma’shuqlik va ehtirosni haqiqiy tuyg‘u deb qabul qiladilar. Albatta, o‘z his-tuyg‘ularingizni sinab ko‘rish, ularning jiddiyligini aniqlashga harakat qilish kerak. Ammo bu yillarda ham nikoh ittifoqi tuzish mumkin, bu butun keyingi hayot uchun ishonchli tayanch bo‘ladi[3]. 20-30 yoshda odam o‘zini ancha hushyorroq baholaydi. Asosan shu yoshida u allaqachon o‘qishni tugatgan va o‘z karerasini qurishga kirishgan. U turli odamlar bilan muloqot qilish tajribasiga ega. Ammo bu cheksiz imkoniyatlar davri bo‘lib, ba’zan o‘zingizni nikoh rishtalari, shuningdek, turmush o‘rtog‘i va bolalariga g‘amxo‘rlik qilish majburiyati bilan bog‘lab qo‘ygingiz kelmaydi.

30 yoshdan oshgan odam juda yaxshi bilimga ega va hayotdan nima xohlashini juda yaxshi biladi. Nazarimda, mana u, nikohga kirishning ideal yoshi. Biroq hayotda bu yoshdagi odamlar uchun murosaga kelish va o‘z hayotini sherigining xohishiga moslash qiyin. Shuning uchun boshqa odamga ko‘nikish sekinroq boradi. Nikohga kirish 18 yoshdan 23 yoshgacha bo‘lgan qizlar uchun eng maqbul hisoblanadi. Bu vaqtga kelib, uning jinsiy yetilishi tugallanadi, u nafaqat jismonan, balki ma’nan ham onalikka tayyor bo‘ladi. Bu yillarda tug‘ruq uning organizmiga yaxshi ta’sir ko‘rsatadi, jismoniy va ma’naviy kuchlarining gullab-yashnashiga yordam beradi. Erkaklarning eng yaxshi nikoh yoshi 22 yoshdan 25 yoshgacha deb tan olingan.

Jamiyatda qabul qilingan oila qurishga ijtimoiy tayyorlik ko‘rsatkichlari orasida mualliflar quyidagilarni sanab o‘tadilar: ta’limni tugallash, kasb egallash yoki oliy ma’lumot olishni davom ettirish, mustaqil mehnat faoliyatini boshlash.

Nikohga ijtimoiy-iqtisodiy tayyorlik bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uning mohiyati yoshlarning o‘zini va oilasini mustaqil moddiy ta’minlash imkoniyatidan iborat. Biroq, yoshlarning bir qismi 18-19 yoshida ota-ona oilasidan iqtisodiy jihatdan mustaqil bo‘lib qoladi, qolgan qismi esa yana besh-yetti yil davomida ota-onalarining moddiy yordamidan foydalanadi. Bu ziddiyat nikoh ittifoqlarini mustahkamlash yo‘lidagi jiddiy to‘siqdir[4].

Nikohga ijtimoiy tayyorlik yoshlarning bir-birlari, oilalari, farzandlari uchun mas’uliyatni o‘z zimmlariga olishlarini anglashni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy yetuklik - bu shaxsning ijtimoiy va psixologik jihatdan belgilangan rivojlanish bosqichi bo‘lib, u an’anaviy ravishda insonning mustaqillik va o‘z-o‘ziga yetarlilik xususiyatlariga ega bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy yetuklik bosqichida inson nafaqat o‘zining iqtisodiy va fuqarolik huquq va majburiyatlarini anglashga, nafaqat guruh va ijtimoiy me’yorlarni samarali o‘zlashtirishga, balki sotsium doirasidagi mavjud holatga tanqidiy munosabatda bo‘lishga ham qodir.

Er-xotinlik va oila mustahkamligi uyg‘unligining asosiy sharti nikohlanuvchilarning axloqiy-psixologik tayyorgarligidir. U o‘zaro ta’sir qiluvchi juda ko‘p omillarni o‘z ichiga oladi. Agar yigit yoki qizda zamonaviy oila ideali shakllanmagan bo‘lsa, ular nima uchun

uylanayotgani, oiladan nima kutayotgani, qanday oilaviy munosabatlarni qurmoqchi ekani, er-xotinlik, ota-onalik zimmasida qanday majburiyatlar borligi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmasa, ularni nikohga tayyor deb bo‘lmaydi. Bo‘ljak er-xotin ongli ravishda birgalikdagi sa‘yi-harakatlar bilan oila hayoti uchun, uning har bir a‘zosi uchun qulay sharoit yaratishga tayyor bo‘lishlari kerak.

Yigitlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash, ularning psixologik rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayon nafaqat ota-onalar, balki ta‘lim muassasalari va jamiyatning boshqa a‘zolari tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanishi kerak. Yigitlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik jihatlarini ko‘rib chiqamiz:

O‘zlikni anglash va identifikatsiya bu yigitlar mustaqil hayotga tayyorlanishda o‘zlikni anglash, o‘z qadriyatlarini va prinsiplarini shakllantirishda muhim bosqichni bosib o‘tishlari zarur. O‘z-o‘zini anglash, shaxsiy istaklar, ehtiyojlar va qarorlar qabul qilishni o‘rganish, mustaqil hayotga tayyorlanishda asosiy psixologik tayyorgarlik hisoblanadi. Emotsional barqarorlikni rivojlantirish bu mustaqil oilaviy hayotga o‘tish yigitlarga bir qator emotsional sinovlar keltiradi. Oilaviy munosabatlar, mas‘uliyat, moddiy ta‘minot kabi masalalar bilan kurashish zarurati, ularni stress va befarqlikdan qochishga o‘rgatadi. Shu bilan birga, yigitlar o‘z hissiyotlarini boshqarishni, salbiy vaziyatlarda to‘g‘ri reaksiya berishni o‘rganishlari lozim.

Mas‘uliyat hissini rivojlantirish bu oilaviy hayotda mas‘uliyat juda muhimdir. Yigitlar, o‘z oilasiga qarash, kelajakdagi hamkori va bolalari uchun mas‘uliyatni his qilishlari kerak. Bu, nafaqat moddiy, balki emotsional va ma‘naviy mas‘uliyatni ham o‘z ichiga oladi. Mustaqil hayotga tayyorlash jarayonida yigitlarga o‘z harakatlari va qarorlarining oqibatlarini tushunish muhimdir.

Kommunikatsiya va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda mustaqil oilaviy hayotda yigitlar o‘z fikrlarini aniq va samimiy tarzda ifodalashni, shuningdek, qarama-qarshiliklar va muammolarni hal qilishni o‘rganishlari zarur. Bu, oilada sog‘lom muloqot o‘rnatish, turli vaziyatlarda moslashuvchanlikni rivojlantirish va muammolarni samarali tarzda hal qilishni anglatadi.

Moddiy mustaqillik va rejalashtirishda mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashda yigitlarga moddiy mustaqillikni qo‘lga kiritish, daromadni boshqarish, byudjet tuzish va iqtisodiy rejalashtirishni o‘rgatish muhimdir. Bu, ularning hayotdagi moliyaviy muammolarni qanday hal qilishlarini va oilaviy farovonlikni qanday saqlashni o‘rganishlariga yordam beradi.

Empatiya va o‘zaro hurmatni rivojlantirishda yigitlar oilaviy hayotga tayyorlanish jarayonida empatiya, ya‘ni boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va hurmat qilishni o‘rganishlari zarur. Bu, oilada tinchlik va hamjihatlikni saqlash, shuningdek, turli fikrlar va qarashlarga hurmat bilan qarashni o‘rgatadi. Hayotiy qiyinchiliklarga tayyorlanishda mustaqil hayotga o‘tish, ba‘zan kutilmagan vaziyatlar va qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Yigitlar, turli xil muammolar va hayotdagi o‘zgarishlarga tayyor bo‘lishlari kerak. Bu jarayonda qat‘iyatlilik, sabr-toqat va stressni boshqarish qobiliyatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsiy chegara va o'zaro munosabatlar bu mustaqil oilaviy hayotga tayyorlanishda yigitlar o'z shaxsiy chegara va huquqlarini anglashlari, oilaviy munosabatlarda qanday rolda bo'lishlarini belgilashlari zarur. Bu, ularning o'z-o'zini hurmat qilish va boshqalar bilan sog'lom munosabatlarni o'rnatishlariga yordam beradi. Yigitlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni psixologik rivojlanish, emotsional barqarorlik, mas'uliyat va o'zaro hurmatni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Bu tayyorgarlik oilaviy hayotda muvaffaqiyatli bo'lish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, jamiyat, ota-onalar va ta'lim muassasalari bu jarayonda yigitlarni qo'llab-quvvatlashda faol ishtirok etishlari zarur.

Yigitlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik xususiyatlari dolzarb masala hisoblanadi, chunki zamon o'zgarishlari, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar, shuningdek, turmush tarzidagi yangi talablar yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda yangi yondashuvlarni talab qiladi. Bu jarayonning dolzarbligi bir nechta omillar bilan izohlanadi:

Oilaviy qadriyatlarning o'zgarishi: Hozirgi kunda oilaviy munosabatlarga bo'lgan qarashlar, an'anaviy oilaviy tuzilmalardan farq qiladi. Bu, o'z navbatida, yigitlar uchun mustaqil hayotga tayyorlanish jarayonini murakkablashtiradi. Yigitlar mustaqil turmush qurish uchun nafaqat material, balki psixologik, emotsional, ijtimoiy va ma'naviy jihatdan ham tayyor bo'lishlari kerak.

Raqobatbardosh ijtimoiy muhit: Yigitlar mustaqil hayotga tayyor bo'lishi uchun ularning ijtimoiy ko'nikmalari va munosabatlarni boshqarish qobiliyati muhimdir. Bu jarayonda o'z-o'zini anglash, boshqalar bilan muloqot qilish, mas'uliyatni o'z zimmlariga olish kabi psixologik qobiliyatlar asosiy rol o'ynaydi.

Oila va turmushga tayyorgarlik: Mustaqil oilaviy hayotga tayyorlanishning psixologik jihatlarini faqat o'zini ta'minlash, ish bilan shug'ullanish kabi material masalalar bilan cheklanmaydi. Yigitlar uchun o'zining oila qurish, farzand tarbiyalash, oilaviy muammolarni hal qilish, hamkorlik va sheriklik mas'uliyatlarini qabul qilish kabi psixologik ko'nikmalarni rivojlantirish zarur.

Sog'lom munosabatlar o'rnatish: Yigitlarni mustaqil hayotga tayyorlashda ularning emotsional intellekti muhim rol o'ynaydi. Oilaviy munosabatlarda muvaffaqiyatli bo'lish uchun, yigitlar o'z his-tuyg'ularini boshqarish, o'zining va boshqalar his-tuyg'ularini anglash, ijtimoiy vaziyatlarga moslashish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishlari lozim.

Stressga qarshi turish va qarorlar qabul qilish qobiliyatlari: Mustaqil oilaviy hayotda yigitlar ko'plab murakkab qarorlar qabul qilishlari va hayotdagi qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Bunday holatlarda psixologik bardoshlik, stressni boshqarish va muammolarni samarali hal qilish ko'nikmalari juda muhimdir.

O'z-o'zini anglash va psixologik moslashuv: Yigitlar o'zlarini va o'z hayotini anglashlari, o'z qarorlarini mustaqil ravishda qabul qilishlari, o'z orzu va maqsadlariga erishish yo'lida ruhiy barqarorlikni saqlashlari kerak. Bu, ularga oilaviy hayotda muvaffaqiyatli bo'lish imkonini beradi.

Shunday qilib, yigitlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik xususiyatlari o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlar, individual psixologik xususiyatlar, turmush qurganlar bilan bog'liq munosabatlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonda ularning emotsional, intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga katta e'tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan tantanali marosimda qilgan maruza. T., Xalq so'zi, 2020 yil dekabr.
2. Зудилина И.Ю. Формирование психологической готовности студентов к брачным отношениям. Автореферат дисс. ... канд. пс. н.. - Самара, 2008.
3. Фещенко Е.М., Кузнецова Е.В. Проблема формирования ценностей современной молодёжи. Сборники конференций НИЦ Социосфера. - 2013. - № 11. - С. 22-26.
4. Davronova D.S “Oilada voyaga yetmagan bolalarning ijtimoiy ongini tarbiyalash tizimini rivojlantirish”. Toshkent – 2018.-bet